

BIR XIL STANDART VA BIR XIL HISOBOT SHAROITIDA TURLI QARORLAR: BUXGALTERIYA QARORLARIDA INSON OMILINING YASHIRIN RO'LI

Botirjonova Bonu Baxtiyor qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Buxgalteriya hisobi va audit” yo’nalishi 3-kurs talabasi

Email: bonubotirjonova164@gmail.com

Ilmiy rahbar: Abdusalomova Nodira Baxodirovna

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18766077>

Annotatsiya: Hozirgi kunda barcha rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda tabiiyki o'zining ishlab chiqaruvchi va xizmat ko'rsatuvchi korxonalari mavjud bo'lib, bu korxonalarning yuragi buxgalter hisoblanadi. Juda ko'p insonlar buxgalteriyani shunchaki raqamlar dunyosi yoki faqatgina matematik hisob kitoblar deb o'ylashadi, ammo aslida u qat'iy standartlar, aniq qoidalar va soliq talablariga amal qilish orqali korxonaning moliyaviy natijalarini shakllantiradigan, uning kelajagini belgilab beradigan va inson omili boshqaradigan katta bir tizimdir. Shu bilan birga amaliyot shuni ko'rsatadiki, moliyaviy hisobotlar faqat iqtisodiy jarayonlarning qog'ozda aks ettirilishi emas, balki ularni baholayotgan mutaxassisning professional qarorlari natijasidir. Bu tizimda buxgalterning bir donagina kichik qarori, bir yil ichidagi foydani bir necha barobar oshirishi yoki kamaytirishi ham mumkin. Buxgalter ish jarayonida qaror qabul qiladi, lekin qarorning natijasini faqatgina tajriba yoki yuqori bilim emas, balki insonning o'ziga xos psixologiyasi ham belgilaydi. Misol uchun bir xil standartlar, bir xil sharoitda hamda bir xil xo'jalik operatsiyalari mavjud bo'lganda ham turli korxonalarning moliyaviy natijalari keskin farq qilishi mumkin. Buning sababi esa standartlarning o'zida emas, balki ularni qo'llayotgan shaxsning ya'ni buxgalterning qaror qabul qilish jarayonidadir. Aslida standartlar umumiy tamoyillarni belgilaydi, biroq aktivlarning qiymatini aniqlash, amortizatsiyani qanday hisoblash, Tovar moddiy zaxiralarini qanday hisobga olish yoki shunga o'xshash juda ko'plab jarayonlarda mutaxassisning bahosi hamda uning qarori hal qiluvchi ahamiyatga ega hisoblanadi.

Ushbu maqolada, nafaqat O'zbekistonda balki butun dunyoda ko'p uchraydigan, ba'zi ko'zga ko'rinmaydigan, buxgalterning qaror qabul qilish jarayonidagi holatlarni korxonalar misolida ko'rib chiqamiz. Aslida amalda bir xil standart va qoidalarga amal qilayotgan ikki korxona faoliyatining natijasi sezilarli darajada farq qilishi mumkin. Qanday omillar bunga sabab bo'ladi? Bu savol oddiy ko'rinishi bilan bir qatorda, aslida, moliyaviy qaror qabul qilish jarayonidagi inson omilining murakkabligini ochib beradi. Shu sababli moliyaviy hisobotni faqat raqamlar yig'indisi sifatida emas, balki professional fikr, ehtiyotkorlik darajasi, tavakkalchilikka nisbatan munosabat va hatto psixologik omillar ta'sirida shakllangan iqtisodiy jarayon sifatida ko'rish zarur. Buxgalteriya bu oddiygina sof matematika emas, bu professional qabul qilingan hukm ya'ni qarordir. Professional qaror esa shubxasiz psixologik jarayon bilan bevosita bog'liq hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Hisob siyosati, FIFO, o'rtacha tortilgan qiymat (AVECO), professional fikr, psixologik omillar, fikrlash tizimi

DIFFERENT DECISIONS UNDER THE SAME STANDARD AND THE SAME REPORTING CONDITIONS: THE HIDDEN ROLE OF THE HUMAN FACTOR IN ACCOUNTING DECISIONS

Botirjonova Bonu Bakhtiyor qizi

Tashkent State University of Economics

3rd year student of the "Accounting and Audit" specialization

Email: bonubotirjonova164@gmail.com

Scientific supervisor: Abdusalomova Nodira Bakhodirovna

Annotation. Nowadays, all developed and developing countries naturally have their own manufacturing and service enterprises, and the heart of these enterprises is an accountant. Many people think of accounting as just a world of numbers or just mathematical calculations, but in fact it is a large system that, by adhering to strict standards, clear rules and tax requirements, forms the financial results of the enterprise, determines its future and is controlled by the human factor. At the same time, practice shows that financial statements are not just a reflection of economic processes on paper, but the result of professional decisions of a specialist who evaluates them. In this system, just one small decision by an accountant can increase or decrease profits several times over in a single year. An accountant makes decisions in the process of work, but the result of the decision is determined not only by experience or high knowledge, but also by the specific psychology of a person. For example, even with the same standards, under the same conditions and with the same business operations, the financial results of different enterprises can differ significantly. The reason for this is not in the standards themselves, but in the decision-making process of the person applying them, that is, the accountant. In fact, the standards establish general principles, but in many similar processes, such as determining the value of assets, how to calculate depreciation, how to account for inventories, or the like, the expert's assessment and his decision are of decisive importance.

In this article, we will consider some invisible situations in the decision-making process of an accountant, which are common not only in Uzbekistan but also throughout the world, using the example of enterprises. In fact, the results of the activities of two enterprises that practically follow the same standards and rules can differ significantly. What factors cause this? This question, along with its seeming simplicity, actually reveals the complexity of the human factor in the process of financial decision-making. Therefore, it is necessary to view financial reporting not only as a sum of numbers, but also as an economic process formed under the influence of professional judgment, level of caution, attitude to risk, and even psychological factors. Accounting is not just pure mathematics, it is a professionally made judgment, that is, a decision. And a professional decision is undoubtedly directly related to a psychological process.

Keywords: Accounting policy, FIFO, weighted average cost (AVECO), professional opinion, psychological factors, thinking system

Deyarli barcha davlatlarda buxgalteriya hisobi eng tartibga solingan hamda hujjatlashtirilgan faoliyat turlaridan biri hisoblanadi. Har bir xo'jalik operatsiyasi o'zining hujjati bilan tasdiqlanadi, hisob-kitoblar me'yoriy standartlarga asoslanadi va moliyaviy hisobotlar esa qat'iy qoidalarga asoslanib shakllantiriladi. Shuning uchun ham ko'pchilik buxgalterning faoliyatida qaror qabul qilish jarayoni unchalik katta ahamiyatga ega emas deb hisoblaydi. Aslida buxgalteriya hisobi qat'iy me'yoriy hujjatlar bilan tartibga solingan bo'lsa ham, standartlar barcha holatlar uchun tayyor yechimlarni taqdim etmaydi, chunki aksariyat xalqaro va milliy standartlar qoidalarga emas, balki tamoyillarga asoslanadi. Shu sababli ular

xo'jalik operatsiyalarini aks ettirishning umumiy yo'nalishini belgilaydi, biroq aniq vaziyatda qanday qaror qabul qilishni to'liq aniqlab bermaydi. Agar biz nazariy jihatdan faqatgina standartlar va ma'lum qoidalarga asoslanib qaraydigan bo'lsak, bir xil sharoitda faoliyat yuritayotgan korxonalarda moliyaviy natijalar ham o'xshash bo'lishi kerak bo'ladi. Biroq amaliyotda ham shundaymi? Haqiqatdan ham shunday bo'lsa, unda buxgalteriyadagi xato va kamchiliklar nimaning hisobiga shakllanishi nazarimda ko'pchilikni qiziqтира kerak. Bu xatolar ko'pincha standartlarning yetishmasligi, bilim darajasi pastligi yoki yetarli tajriba yetishmasligidan emas, balki insonning kognitiv ya'ni psixologik fikrlash mexanizmlari (tezkor fikrlash, tanishlik effekti, diqqatning sustligi yoki charchashi) natijasida yuzaga keladi. Amaliyotda buxgalteriya hisobi faqat raqamli yozuvlar yig'indisidan tashkil topmagan, chunki buxgalter har kuni ko'plab kichik qarorlar qabul qiladi. Misol uchun, u operatsiyani qaysi hisobot davriga kiritish, xarajatni kapitalizatsiya qilish yoki darhol xarajat sifatida tan olish, xatolikni muhim yoki nomuhim deb baholash, hujjatning yetarililigini aniqlash hamda amortizatsiya jarayonini qaysi hisoblash usulida olib borish kabi masalalar standartda umumiy formulalar bilan belgilangan, ya'ni aniq bir faoliyat turidagi korxona uchun maxsus standart ishlab chiqilmagan shu sababli bu korxona faoliyatidan kelib chiqqan holatda yuritiladigan jarayon hisoblanadi. To'g'ri bu jarayonlar 8-son Buxgalteriya hisobining xalqaro standartidagi hisob siyosatida belgilab qo'yilgan bo'lishi mumkin.

Hisob siyosati — bu tashkilot tomonidan moliyaviy hisobotni tayyorlashda va taqdim etishda qo'llaniladigan muayyan tamoyillar, asoslar, umumqabul qilingan shartlar, qoidalar va amaliy yondashuvlardir.¹ Biroq, standartlar umumiy qoida va mezonlarni belgilaydi, biroq ularni aniq vaziyatga qo'llash mas'uliyati mutaxassis buxgalter zimmasida qoladi. Bir narsani e'tiborga olishimiz kerak standartlar qarorni bekor qilmaydi, balki qaror qabul qilish chegarasini belgilaydi shu bilan birga qarorni baribir inson qabul qiladi. Ushbu qarorlar ko'pincha aniq formulaga emas, balki tezkor baholash tizimiga asoslanadi. Demak, hisobotdagi farqlar faqatgina operatsiyalarda emas, balki ularni qayd etish usuliga bog'liq bo'lib, usuldagi farq ko'pincha standartlarda emas, qaror qabul qilayotgan inson tafakkurida yotadi. Mashhur psixolog Daniel Kahneman o'z kitobida inson fikrlashi yagona mexanizm asosida ishlamasligini, balki ikki xil fikrlash tizimi orqali amalga oshirishini ta'kidlagan. Birinchi tizim tezkor, avtomatik va katta aqliy kuch talab qilmaydigan fikrlash bo'lib, u tajriba va odatlarga tayanadi. Ikkinchi tizim esa sekin, tahliliy va ongli nazoratni talab qiladigan fikrlash jarayoni hisoblanadi. Shu bilan birga Kahneman ta'kidlaganki, inson kundalik faoliyatida ko'pincha birinchi tizimga suyanadi, chunki u tez va qulay. Biroq murakkab vaziyatlarda aynan shu tezkor fikrlash xatolarga olib kelishi mumkin, chunki u ma'lumotni chuqur tekshirmasdan, tashqi o'xshashlik yoki oldingi tajribaga asoslanib xulosa chiqaradi. Ikkinchi tizim esa bunday xatolarni kamaytirishi mumkin, ammo u ko'proq vaqt va e'tibor talab qiladi.² Buxgalterning kundalik faoliyatida ham aynan birinchi tizim ustunlik qiladi. Ko'p sonli operatsiyalarni qisqa vaqt ichida qayta ishlash zarurati sababli u har bir operatsiyani chuqur tahlil qilish imkoniga ega emas va ko'pincha tanish ko'ringan holatlarni avtomatik ravishda oldingi tajriba asosida rasmiylashtiradi. Natijada hujjatning tashqi o'xshashligi yoki odatiy ko'rinishi uning to'g'riligiga tenglashtiriladi hamda, ayrim operatsiyalar ikkinchi tizimni, ya'ni chuqur tahlilni talab qiladi.

¹ 8-son Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti "Hisob siyosati, hisob baholaridagi o'zgarishlar va xatolar"

² Kahneman, D. (2011). *Thinking, Fast and Slow*. New York: Farrar, Straus and Giroux.

Agar buxgalter doimiy barcha holatlarda tezkor fikrlashga tayanaversa, xatoliklar yuzaga kelishi ehtimoli ortadi. Demak, buxgalteriya xatolari faqat me'yorlarni bilmaslik natijasi emas, balki inson tafakkurining tabiiy ishlash mexanizmi bilan ham bog'liqligini bilishimiz mumkin.

Daniel Kahneman inson fikrlash jarayonini ikki turga ajratadi deb yuqorida takidladik, endi buni buxgalteriya amaliyotida quyidagi holat orqali tushuntiramiz.

Tasavvur qilaylik, bir xil faoliyat bilan shug'ullanuvchi, bir vaqtda tashkil topgan, hamda bir xil sharoitdagi ikki korxona mavjud. Har ikki korxona ham bir xil milliy buxgalteriya standartlari asosida ishlaydi va bir xil xo'jalik operatsiyalarini amalga oshiradi. Oy oxirida ikkala korxonada ham bir xil holat yuzaga keladi ya'ni omborga kelib tushgan tovarlar partiyalarga bo'lingan, narxlar esa turlicha hisoblanib, buxgalter tovarlarning sotilgan tannarxini aniqlashi kerak. Standartlar asosida FIFO yoki o'rtacha tortilgan qiymat (AVECO) usulini tanlash mumkin.³

FIFO formulasi birinchi xarid qilingan yoki ishlab chiqarilgan zaxiralar birinchi bo'lib sotilishini va o'z navbatida davr oxirida qolgan zaxira birliklari eng oxirgi xarid qilingan yoki ishlab chiqarilganini nazarda tutadi. O'rtacha tortilgan tannarx (AVECO) formulasi bo'yicha har bir birlikning tannarxi xuddi shunday birliklarning davr boshiga o'rtacha tortilgan qiymati hamda davr davomida xarid qilingan yoki ishlab chiqarilgan shu turdagi birliklar tannarxining o'rtacha tortilgan qiymati asosida aniqlanadi. O'rtacha qiymat tashkilot faoliyatining o'ziga xos xususiyatiga qarab davriy asosda yoki har bir yangi partiya olinganda hisoblanishi mumkin. Birinchi korxonada buxgalter uzoq yillik tajribaga ega. U avvalgi davrlarda ishlatgan usulni o'zgartirmaydi va deyarli o'ylamasdan FIFO usulini qo'llaydi. Qaror tez qabul qilinadi, qo'shimcha hisob-kitoblar qilinmaydi. Buxgalter o'z tanlovini "bu usul har doim ishlagan va albata yaxshi usul" degan ichki ishonch bilan asoslaydi.

Ikkinchi korxonadagi buxgalter esa shu vaziyatni batafsil tahlil qiladi. U narxlarning o'sish tendensiyasini, foyda solig'iga ta'sirini, kelajakdagi pul oqimlarini hisoblaydi va AVECO usulini tanlaydi. Qaror sekinroq qabul qilinadi, ammo ongli hisob-kitoblarga asoslangan holatda. Natijada, bir xil operatsiya, bir xil standart, bir xil mahsulot va bir xil iqtisodiy sharoitda ikki xil moliyaviy natija shakllanadi. Bu holat aslida standartlarning buzilishi bilan emas, balki har ikki buxgalter ham qoidalar doirasida harakat qilganini ifodalaydi. Bu yerdagi asosiy farq qaror qabul qilish mexanizmida bo'lib, aynan shu qaror hisobotdagi farqlarga olib keldi. Yana bir misolni ko'raylik. Tasavvur qilaylik, Yuqori zamonaviy texnologik smartfon ishlab chiqaruvchi korxona yangi ishlab chiqarish vositasini ishga tushirdi. 16-son Buxgalteriya hisobining xalqaro standartiga muvofiq u asosiy vosita bo'lib, unga eskirish hisoblanishi kerak.

Eskirish hisoblanadigan qiymat - aktivning boshlang'ich qiymatidan yoki boshlang'ich qiymat o'rnini bosadigan boshqa qiymatdan tugatish qiymatini chegirish natijasida olingan qiymatdir.

Eskirish - bu aktivning eskirish hisoblanadigan qiymatini foydali xizmat muddati davomida tizimli taqsimlashdir.⁴ Mazkur uskuna asosiy vosita bo'lib, u qisqa vaqt ichida texnologik jihatdan eskirishi kutiladi, chunki mobil qurilmalar bozori tez yangilanadi va yangi smartfonlarga doimo talab yuqori bo'lib kelgan. Shu bilan birga uskunaga eskirish hisoblash

³ 2-son Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti Zaxiralar

⁴ 16-son Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti "Asosiy vositalar"

kerak bo'lib, agar biz standartlarga yuzlansak standartlar buxgalterga bir nechta usulni qo'llash imkonini beradi.

Aktivning eskirish hisoblanadigan qiymatini uning foydali xizmat muddati davomida tizimli asosda taqsimlash uchun eskirish hisoblashning turli usullaridan foydalanish mumkin. Ushbu usullar to'g'ri chiziqli usul, kamayib boruvchi qoldiq usuli va ishlab chiqarish usulini o'z ichiga oladi. To'g'ri chiziqli usul, agar aktivning tugatish qiymati o'zgarmasa, foydali xizmat muddati davomida o'zgarmas eskirish summasini keltirib chiqaradi. Kamayib boruvchi qoldiq usulida eskirish summasi aktivning foydali xizmat muddati davomida kamayib boradi. Ishlab chiqarish usulida esa eskirish summasi aktivdan kutilayotgan foydalanish yoki ishlab chiqarish hajmi asosida hisoblanadi. Tashkilot aktivda mujassamlashgan kelgusi iqtisodiy nafni iste'mol qilish xususiyatlarini aniqroq aks ettiradigan usulni tanlaydi.⁵

Eng ko'p qo'llaniladiganlari to'g'ri chiziqli usul va tezlashtirilgan amortizatsiya usuli bo'lib, ishlab chiqaruvchi korxona buxgalteri ulardan birini tanlashi kerak. Agar u juda ko'pchilik foydalanadigan to'g'ri chiziqli usuldan foydalansa, bu usulga asosan xarajatlar butun foydalanish muddati davomida teng taqsimlanadi. Buning natijasida dastlabki davrlarda mahsulot tannarxi pastroq ko'rinadi, keyingi davrlarda esa nisbatan yuqori bo'ladi, chunki smartfon tez ma'naviy qadrsizlanadi va uning yangi turlariga talab yuqori bo'ladi. Tezlashtirilgan usulda esa aksincha: xarajatlar birinchi yillarda katta, keyinchalik esa kamayadi. Iqtisodiy jihatdan qaralganda, ikkala usul ham standartlarga zid emas va aktivning qiymatini to'g'ri hisobdan chiqaradi, ammo moliyaviy natijalar keskin farqlanadi. Bu yerda muhim savol paydo bo'ladi: "Agar formulalar aniq bo'lsa, bu qaror qayerda paydo bo'ladi?" Bunga javob esa baholash bosqichida. Buxgalter aktivning iqtisodiy foyda keltirish shaklini oldindan taxmin qiladi. Bu esa matematik hisobdan ko'ra kognitiv ya'ni psixologik baholashga yaqinroq jarayondir. Kahneman ta'kidlaganidek, inson ko'pincha tezkor birinchi tizim fikrlashiga tayanadi hamda, u odatlar, tajriba va tanishlikka asoslanadi. Ikkinchi tizim esa murakkab hisob-kitob va ongli nazoratni talab qiladi. Birinchi korxona buxgalteri qarorni intuitiv ravishda qabul qiladi, ikkinchisi esa analitik fikrlashni ishga soladi. Agar buxgalter bozordagi talab o'rganib uni barqaror deb hisoblasa, u odatda to'g'ri chiziqli usulni tanlaydi. Bu qaror ko'pincha tez qabul qilinadi va avvalgi tajribaga tayanadi. Kahneman buni birinchi tizim fikrlashi tezkor va intuitiv qaror sifatida izohlaydi. Boshqa holatda esa buxgalter texnologiya tez eskirishini, yangi model chiqishini va narxlar pasayishini tahlil qilishi mumkin. U ishlab chiqarish hajmini prognoz qiladi va aktivdan olinadigan iqtisodiy manfaat dastlabki yillarda yuqori bo'lishini hisoblaydi. Bunday qaror sekinroq qabul qilinadi va analitik hisob-kitoblarga asoslanadi, bu ikkinchi tizim fikrlashga mos keladi. Shu tariqa bir xil uskuna, bir xil standart va bir xil iqtisodiy faoliyat sharoitida ikki xil moliyaviy natija shakllanadi. Farq formulada emas, balki mutaxassisning iqtisodiy voqelikni qanday tasavvur qilganidadir. Shu sababli buxgalteriya hisobi to'liq mexanik jarayon emas. Moliyaviy axborot faqat hujjatlar va formulalar natijasi emas, balki uni qayta ishlayotgan mutaxassisning psixologik faoliyati mahsulidir. Moliyaviy hisobotdagi tafovutlar ko'pincha iqtisodiy voqelik farqidan emas, balki inson tafakkurining ishlash uslubidan kelib chiqishi mumkin.

Bir qarashda ko'pchilik korxona faoliyatidagi strategik va moliyaviy qarorlar rahbariyat yoki boshqaruv hisobchisi tomonidan qabul qilinsa, unda buxgalter qanday qaror qabul qilish

⁵ 16-son Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti "Asosiy vositalar"

usulini boshqaradi deb o'ylashi mumkin, bu esa buxgalterning qaror jarayonidagi roli cheklangandek ko'rinishi mumkin. Darhaqiqat, buxgalter odatda xo'jalik operatsiyalarini rasmiylashtiradi va moliyaviy ma'lumotlarni shakllantiradi, ammo u bevosita boshqaruv qarorini qabul qilmaydi hamda u o'zining hisobotlarini to'g'ri yuritish va ularni o'z vaqtida topshirishi kerak. Biroq psixologiyada juda muhim tushuncha bor: "Inson qarori faktlarga emas, fakt qanday taqdim etilganiga bog'liq". Juda ko'p insonlar, korxonadagi rahbarlar moliyaviy qarorlarni o'zlarining tajribasi yoki sezgilariga tayanib qabul qiladi deb o'ylaydi, Ammo aslida, qarorning oxirgi bosqichi ko'pincha buxgalterning qo'lida ekanligini sezishmaydi, chunki faktlar mavjud bo'lsa-da, ularning tuzilishi, taqdim qilinishi va izohlanishi rahbarning ongida "qaror yo'lini" belgilaydi. Masalan, ishlab chiqarish kompaniyasi yangi uskunani sotib olishni ko'rib chiqishmoqda. Buxgalter amortizatsiya usullarini tahlil qiladi, xarajatlarni davrga taalluqli deb ajratadi, zaxiralarni baholaydi va ushbu ma'lumotni to'g'ri tanlangan usul va ba'zan diagramma orqali rahbarga taqdim etadi. Shu taqdimot orqali rahbar intuitiv (1-tizim) yoki analitik (2-tizim) fikrlashni ishga soladi. Natija esa aniq bo'lib, buxgalterning professional qarori va ichki sezgisi kompaniya strategiyasini shakllantiradi va muvaffaqiyatga yoki xatoga yo'l ochadi. Shuning uchun ham kompaniyaning yuragi bu buxgalter hisoblanadi, chunki buxgalter faqat raqamlarni yozuvchi yoki shunchaki hisoblovchi emas, balki kompaniyaning boshqaruv qarorlarini yo'naltiruvchi psixologik kalit hisoblanadi. Rahbar o'zi xohlasa ham, qaror ko'pincha buxgalterning ustunligi va malakasi orqali shakllanadi. Shu bilan birga, buxgalteriya faoliyatida qaror qabul qilish jarayoni faqat tanlovni amalga oshirish bilan cheklanmaydi. Avvalo, tanlov uchun asos bo'luvchi moliyaviy axborotni o'zi shakllantiriladi. Moliyaviy hisobot real xo'jalik jarayonlarining to'g'ridan-to'g'ri aks ettirilgan nusxasi emas, balki buxgalter tomonidan tanlangan hisob siyosati, baholash usullari va tasniflash yondashuvlari asosida talqin qilingan iqtisodiy voqelik hisoblanadi. Buxgalter uchun qaror qabul qilish jarayoni juda muhim ekanligini ko'rdik, ammo xatolar nimaning hisobiga kelib chiqadi? Buxgalteriyadagi xatolar aslida birinchi tizim bilan bog'liq ya'ni tez qaror qabul qilish jarayoni bilan bog'liq hisoblanadi. Qaror sifatiga vaqt bosimi va cheklangan resurslar kabi tashqi omillar, shuningdek, "hal qilishga shoshilish" yoki qisqa yo'llarga tayanish kabi ichki omillar ta'sir qiladi, bu esa tarfakashlikni keltirib chiqarishi mumkin.⁶ Amaliyotda buxgalter har doim ham ideal sharoitda ishlamaydi. Unga bir qancha omillar ta'sir qilishi mumkin. Masalan, qisqa muddat, cheklangan resurslar va tezkor hisobot tayyorlash talabi uni to'liq tahlil o'rniga "qisqa yo'l"lardan foydalanishga undaydi. Natijada qarorlar ko'rinishda to'g'ri bo'lsa ham, insoniy psixologik tarfakashlik yuzaga keladi. Psixologik tarfakashlik aslida xato emas, u xato qilishga olib keluvchi fikrlash mexanizmi hisoblanadi, ya'ni inson ma'lumotni mantiqan emas, balki ong osti qisqa yo'llari orqali baholashi natijasida tizimli ravishda bir tomonga og'ib qaror chiqarishiga aytiladi. Aslida muammo vaqt bosimida emas va bunga yechim ham vaqt bilan bog'liq emas. Psixolog olim Kahneman bir qancha tajribalar o'tkazgan va u odamlar ehtimollikni matematik hisoblash orqali baholaydimi yoki yo'qmi shuni tekshirgan. Natijada inson ko'p vaqt bo'lsa ham xato qiladishini isbotlagan, chunki muammo shoshilishda emas, balki avtomatik fikrlashda. Odamlar statistik hisob-kitob qilmaydi, balki tezkor aqliy qoidalar (heuristics) orqali qaror qiladi.⁷ Buxgalter ham shoshgani uchun emas, unga hamma narsa tanish tuyulgani uchun

⁶ Professional Judgment in Accounting and Auditing (ResearchGate)

⁷ Tversky & Kahneman, 1974, *Science*, 1124–1131-betlar

xato qiladi. Bularga yechim bormi? Albatta psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, inson o'z qarorining to'g'riligini ortiqcha baholashga moyil hisoblanadi. Qarorni qabul qilgan shaxs keyinchalik uni tekshirayotganida ham ong osti darajasida o'z xulosasini himoya qiladi va qarama-qarshi dalillarni kamroq sezadi. Shu sababli bir shaxs tomonidan o'zini qayta tekshirish xatolarni sezilarli kamaytirmaydi. To'g'ri auditor buxgalter qilgan hisobotlarni tekshiradi va unga xulosa beradi ammo u qaror qilayotgan vaqtda uni tekshirmaydi ya'ni auditor faqat natijaviy hisobotlarga asoslanib xulosa berishi mumkin. Shuning uchun ham aynan qaror qabul qilayotgan vaqtda tekshiruv zarur. Bir shaxs tomonidan qayta ko'rib chiqish esa "psixologik mustaqillik"ni ta'minlaydi, bunda ikkinchi shaxs qaror natijasiga emas, dalillarga e'tibor qaratadi. Bu jarayon auditorlik tekshiruvidan farq qiladi, chunki u moliyaviy hisobot tayyorlanishidan oldin amalga oshiriladi va xatoni aniqlashdan ko'ra, xato shakllanishining oldini olishga xizmat qiladi. Yana bir muhim narsa insondan o'z qarorini asoslab berish talab etilganda, u avtomatik xulosaga emas, balki dalillarni tahlil qilishga o'tadi. Yozma asoslash majburiyati qarorni ongli ravishda izohlashni talab qiladi va tezkor qabul qilingan qarorni analitik tekshiruvdan o'tkazadi. Natijada qaror oddiy ya'ni subyektiv bo'lib qolmaydi, balki mantiqiy asoslangan professional fikrlashga aylanadi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, milliy va xalqaro standartlar hisobotlarni qanday yuritish kerakligi haqida yo'l ko'rsatadi, lekin yakuniy iqtisodiy ma'noni aniqlashni buxgalterning o'zi hal qiladi. Ushbu maqola so'ngida buxgalteriya axborotining ishonchliligini oshirish uchun qaror qabul qilish jarayonida psixologik omillarni inobatga olish zarurligini ko'rsatdi, chunki buxgalterning birgina qarori korxonaning moliyaviy barqaror bo'lishini yoki uni moliyaviy inqirozlikka uchrashini xal qiladi. Buxgalteriya amaliyotida ko'plab operatsiyalar to'liq matematik hisoblashga emas, balki baholashga asoslanadi. Psixologik tadqiqotlar esa inson murakkab ehtimollik va tavakkalchilikni to'liq tahlil qilish o'rniga tezkor kognitiv "qisqa yo'llar" orqali qaror qabul qilishini ko'rsatadi. Natijada qarorlar mantiqan qaraganda asoslangandek ko'rinsada, ularning shakllanishida ong osti omillari ham ishtirok etadi. Vaqt bosimi, ma'lumotning ortiqchaligi va ish hajmining yuqoriligi buxgalterni tezkor qaror qabul qilishga majbur qilishi mumkin, lekin bunday sharoitda tanish operatsiyani yetarlicha tekshirmaslik, kichik summalarni ahamiyatsiz deb baholash yoki oldingi tajribaga ortiqcha tayanish xatolarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun buxgalteriya xatolari har doim ham bilim yoki malaka yetishmasligi bilan bog'liq emas, balki u inson tafakkurining tabiiy xususiyatlari bilan ham izohlanadi. Buxgalteriya hisobining ishonchliligini oshirish faqat standartlarni takomillashtirish bilan cheklanmasligi kerak. Buning yechimi buxgalterlarning kasbiy fikrlash jarayonini tushunish, kognitiv ya'ni psixologik xatoliklarni kamaytirish va qaror qabul qilish madaniyatini rivojlantirish yo'llari samara beradi. Yana bir muhim jihat, inson hech qachon o'z xatosini tan olmasligi bo'lib, bu xatoni unga isbotlab bermagunlicha u o'zini to'g'ri qaror qabul qilgandek hisoblashidir. Bu vaqtda esa u qaror qabul qilayotgan vaqtda, aynan nima sababdan shu qarorga kelganligini yozma bayon etirish va bu jarayonni nazorat qilish samara beradi. Moliyaviy hisobotlar sifati nafaqat qoidalar aniqligiga, balki buxgalterning psixologik tayyorgarligi va qarorining ongli boshqara olishiga ham bevosita bog'liq.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Kahneman, D. (2011). *Thinking, Fast and Slow*. New York: Farrar, Straus and Giroux 57

2. Nelson, M. W., & Tan, H. T. (2005). Judgment and decision making research in auditing. *Accounting Horizons*,
3. Professional Judgment in Accounting and Auditing (ResearchGate)
4. Bonner — Judgment and Decision Making in Accounting (2008)
5. 16-son Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti “Asosiy vositalar”
6. 2-son Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti “Zaxiralar”
7. 8-son Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti “Hisob siyosati, hisob baholaridagi o‘zgarishlar va xatolar”